

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
KUTUBXONASHUNOSLIK ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN KUTUBXONASHUNOSLIK ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Kutubxonashunoslik asoslari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Kutubxonashunoslik asoslari

- 1.Kutubxonashunoslik fanining umumnazariy masalalari;
- 2.Kutubxonashunoslikka oid ilk qarashlarning shakllanishi;
- 3.Kutubxonashunoslik fanining ilmiy o‘quv fan sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishi;
- 4.Kutubxonashunoslikning fan sifatidagi mohiyati;
- 5.Kutubxonashunoslik fanining metodologiyasi;
- 6.Kutubxonashunoslik fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Kutubxonash unoslik fanining umumnazariy masalalari	Aholi o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy bilimlarini yanada mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish, kutubxonashunoslik, axborot-kutubxona faoliyati sohasi uchun asosiy ilmiy-nazariy masalalar, umumiy tamoyillar, qonuniyatlar, metodologik asoslar, sohaning istiqbollari, jamiyatni axborotlashtirish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	14 ta
2	Kutubxonash unoslikka oid ilk qarashlarning shakllanishi	Kitob, kitobxonlik va kutubxona haqida xalq an'anaviy pandnomasi bilan ulug'larning dunyoqarashi, mulohazalari bir-biriga juda yaqin, biri ikkinchisins to'ldiradi. Bu hol kitobning katta ma'naviy kuchga egaligi, kitobxonlik inson uchun yuksak mezon ekani bilan izohlanadi.	3 ta
3	Kutubxonash unoslik fanining ilmiy o'quv fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi	Kutubxonashunoslik - bu hujjat, aloqa tizimining ilmiy intizomi bo'lib, kutubxonani ilmiy tushuncha, haqiqat ob'yekti sifatida o'zining barcha aloqalari va vositachiligida aks ettiradi. Ushbu ilmiy intizom bosma nashrlarning maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, tizimi va shakllari, shuningdek, kutubxona ishining nazariyasi tarixi, metodologiyasi, texnologiyasini tshkil etilishini o'rganadi.	8 ta
4	Kutubxonash unoslikning fan sifatidagi mohiyati	Kutubxonashunoslikning fan sifatidagi mohiyati, mazmuni tarixdan ma'lum. O'rta Osiyoda kutubxona fondi uning asosiy boyligi hisoblanib, asosan kitobxonlarni talabi asosida to'ldirib borilgan. Kutubxona fondi orqali kitobxonlarni kitobga bo'lgan xilva-xil talablari qondirilar ekan, uni joylashtirish ham asosan kitobxonga to'liq va yaxshi xizmat ko'rsatish va kutubxonachi o'z vaqtini sarflab kitob topib berishi kerak degan qoidaga rioya qilgan.	5 ta

5	Kutubxonashunoslik fanining metodologiyasi	Insiniyat kelajagini, kelajak taraqqiyotini ilmiy bilimlarsiz tasavvur qilish mumkin emas, hozirgi virtual olamda kitobxonlarni mutolaa madaniyatini jadallashtirishda kelajak yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda kutubxonashunoslik fanining metodologiyasida xizmat shakllarining faollashuvi kutubxonashunoslik fani muammolarining yanada dolzarblashuviga olib keladi. Kutubxonashunoslik fanining boshqa fan bilim shakllaridan farqlari o'ziga xos metodlari ularning mohiyati, fan yutuqlarini ilmiy talqin qilish zaruriyati tobora zarur bo'lib bormoqda.	5 ta
6	Kutubxonashunoslik fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi	Kitob asrlar davomida insiniyatni yaxshilikka va ezgulikka chorlab kelgan. Bu soha zamonlar o'tishi bilan rivojlanib, yangilanib borgan. Kutubxonashunoslik davlat va jamiyat taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Hozirgi zamon kutubxonashunosligining umumiy yo'nalishi jamiyatning har tomonlama axborotlashuvchisi, milliy axborot infratuzilmasini yaratish, yuksak axborot texnologiyalari yutuqlarini amaliyotga joriy qilish singari ijtimoiy hodisalarning g'oyaviy, nazariy mazminini aks ettirishdan iboratdir	5 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
-----	-----------	-------

1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Xakimova M.Y. Kutubxonashunoslik/O'quv qo'llanma. - T.: 2025

2. Xakimova M.Y., Mannonov Y.O., Mavlyanov K.G. Kutubxonashunoslik/O'quv qo'llanma. - T.: Premium poligraf biznes MCHJ. – 2024

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.